

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**DISTINCTIVE FEATURES OF EARLY XX CENTURY ARABIC CHILDREN'S LITERATURE*****Dilafruz Z. Muxiddinova****Associate professor, DSc**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*[*dmuhiddinova@inbox.ru*](mailto:dmuhiddinova@inbox.ru)*Tashkent, Uzbekistan****Dilfuza M. Oripova****Master's student in arabic literature**Department of Arabic Studies**Tashkent State University of Oriental Studies*[*dilfuzsmirkadirovna19@gmail.com*](mailto:dilfuzsmirkadirovna19@gmail.com)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Arabic children's literature, 21st century, digital literature, interactivity, cultural identity, globalization, artificial intelligence.

Received: 08.05.26

Accepted: 09.05.26

Published: 10.05.26

Abstract: This article examines the development of Arabic children's literature from the beginning of the 21st century to the present, focusing on its main stages and its thematic and formal characteristics. The study highlights the transformation of Arabic children's literature from a traditional educational tool into a digital, interactive, and multimedia cultural phenomenon. Particular attention is given to the impact of globalization, digital technologies, and artificial intelligence, as well as the emergence of new themes such as ecology, peace culture, and psychological issues. The article also analyzes the views of contemporary Arab literary scholars and the works of children's writers, demonstrating how Arabic children's literature integrates into the global cultural space while preserving its national identity.

XX ASR BOSHI ARAB BOLALAR ADABIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI***Dilafruz Z. Muxiddinova****DSc, dotsent**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

dmuhiddinova@inbox.ru

Toshkent, O'zbekiston

Dilfuza M. Oripova

Magistratura talabasi: adabiyotshunoslik (arab)

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

dilfuzamirkadirovna19@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: arab bolalar adabiyoti, XXI asr, raqamli adabiyot, interaktivlik, madaniy identitet, globalizatsiya, sun'iy intellekt.

Annatsiya: Mazkur maqolada XXI asr boshidan hozirgi davrgacha bo'lgan arab bolalar adabiyotining rivojlanish jarayoni, uning asosiy bosqichlari hamda mazmuniy va shakliy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab bolalar adabiyotining an'anaviy tarbiyaviy yo'nalishdan raqamli, interaktiv va multimediyaviy madaniy hodisaga aylanishi yoritiladi. Shuningdek, globalizatsiya, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, ekologiya, tinchlik va psixologik muammolar kabi yangi mavzularning bolalar adabiyotiga kirib kelishi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy arab adabiyotshunoslari va yozuvchilarining ilmiy qarashlari hamda asarlari tahlil qilinib, arab bolalar adabiyotining milliy o'zlikni saqlagan holda global madaniy makonga integratsiyalashuvi asoslab beriladi.

ОСОБЕННОСТИ АРАБСКОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ НАЧАЛА XX ВЕКА

Дилафруз Мухиддинова

Доцент, д.ф.н.

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

dmuhiddinova@inbox.ru

Ташкент, Узбекистан

Дилфуза М. Орипова

Магистрант по специальности «Литературоведение (арабский)»

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

dilfuzamirkadirovna19@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: арабская детская литература, XXI век, цифровая литература, интерактивность, культурная

Аннотация: В данной статье анализируется развитие арабской детской литературы с начала XXI века до настоящего времени, а также её основные

идентичность,
искусственный интеллект.

глобализация,

этапы, содержательные и формальные особенности. В исследовании освещается процесс трансформации арабской детской литературы из традиционного воспитательного средства в цифровое, интерактивное и мультимедийное культурное явление. Рассматривается влияние глобализации, цифровых технологий, искусственного интеллекта, а также появление новых тематических направлений, таких как экология, культура мира и психологические проблемы. Анализируются взгляды современных арабских литературоведов и произведения детских писателей, обосновывается интеграция арабской детской литературы в глобальное культурное пространство при сохранении национальной идентичности.

Kirish. Bolalar adabiyoti har bir millatning madaniy xotirasi, axloqiy qadriyatlar va kelajak avlod tafakkurini shakllantiruvchi muhim adabiy-estetik hodisa hisoblanadi. Arab adabiyotida bolalar uchun mo'ljallangan asarlar qadimiy folklor, didaktik hikoyatlar va diniy-ma'rifiy matnlardan boshlangan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab u mustaqil adabiy yo'nalish sifatida shakllana boshladi. Ayniqsa, XXI asr boshlarida arab bolalar adabiyoti mazmun va shakl jihatidan tub o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivoji, raqamli madaniyatning kundalik hayotga chuqur kirib borishi arab bolalar adabiyotini ham yangicha yo'nalishga olib chiqdi. Endilikda bolalar adabiyoti nafaqat axloqiy-tarbiyaviy vazifani bajaruvchi vosita, balki bolaning ijodiy fikrlashi, psixologik rivoji va madaniy identitetini shakllantiruvchi interaktiv madaniy maydon sifatida namoyon bo'lmoqda. Elektron kitoblar, mobil ilovalar, ovozli va vizual hikoyalar, sun'iy intellekt asosidagi adabiy loyihalar ushbu jarayonning yorqin namunasidir. Shu bilan birga, zamonaviy arab bolalar adabiyotida milliy qadriyatlarni saqlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Arab bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojlanishini o'rganishda arab adabiyotshunoslari tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim manba hisoblanadi. Xususan, bolalar adabiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etishda Nabila Al-Haffarning Arab bolalar adabiyoti tarixi asari muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi (Nabila Al-Haffar, 2003). Ushbu tadqiqotda arab bolalar adabiyotining shakllanishi xalq og'zaki ijodi, diniy-ma'rifiy matnlar hamda zamonaviy badiiy adabiyot bilan bog'liq holda tahlil qilingan. Arab bolalar adabiyotining zamonaviy arab adabiyoti bilan aloqadorligini o'rganishda Ahmad Zalatning Zamonaviy arab adabiyotida bolalar adabiyoti asari muhim ahamiyat kasb etadi (Ahmad

Zalat, 1992). Muallif unda bolalar adabiyotining badiiy-estetik xususiyatlari, til uslubi hamda tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, Ali Al-Hadidiyning Bolalar adabiyoti: meros va zamonaviylik o'rtasida asarida bolalar adabiyotida folklor an'analari, milliy qadriyatlar va zamonaviy badiiy shakllarning uyg'unligi tahlil qilingan (Ali Al-Hadidiy, 2005). Zamonaviy davrda arab bolalar adabiyotining raqamli muhit bilan bog'liq jihatlari esa Abdulloh Al-Mutayriyning Arab bolalari uchun interaktiv adabiyot tadqiqotida yoritilgan (Abdulloh Al-Mutayriy, 2021). Bundan tashqari, zamonaviy arab bolalar adabiyotida madaniy identitet masalasi Xolid Husayn va Rim Al-Tuvayyan tadqiqotlarida ham ko'rib chiqiladi (Xolid Husayn, 2019, Rim Al-Tuvayyan, 2021). Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy hamda matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, XX asr arab bolalar adabiyoti mazmun va shakl jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan. Zamonaviy asarlarda milliy madaniy qadriyatlar bilan global madaniyat elementlari uyg'unlashib bormoqda (Nabila Al-Haffar, 2003).

Raqamli texnologiyalar rivoji natijasida bolalar adabiyotining yangi shakllari — elektron kitoblar va interaktiv hikoyalar paydo bo'ldi (Abdulloh Al-Mutayriy, 2021). Shu bilan birga, zamonaviy arab bolalar adabiyotida bolalarning psixologik va ijtimoiy kechinmalarini aks ettirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Maysun Asadiy asarlarida urush va tinchlik mavzusi bolalar dunyoqarashi orqali yoritiladi (Maysun Asadiy, 2012), Huda Barakat hikoyalarida esa bolalikdagi ruhiy kechinmalar ramziy badiiy usullar orqali tasvirlanadi (Huda Barakat, 2011). Umuman olganda, zamonaviy arab bolalar adabiyoti milliylik va global madaniyat o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda rivojlanayotgan dinamik adabiy tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

XX asr oxirlariga kelib arab dunyosida bolalar adabiyoti mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida o'rganila boshladi. Universitetlarda "Bolalar adabiyoti" kurslari joriy qilindi, maxsus monografiyalar yozildi. Masalan: Nabila Haffor – "Bolalar adabiyoti tarixi" (2003), Ahmad Zalat – "Zamonaviy arab adabiyotida bolalar adabiyoti" (1992), Ali Hadidi "Meros va asrlar ichidagi bolalar adabiyoti" (2005). Bu asarlarda arab bolalar adabiyoti psixologik, ijtimoiy va estetik jihatdan tahlil qilinadi.

XX asr o'rtalaridan XXI asr boshlarigacha arab bolalar adabiyoti: xalq og'zaki ijodidan o'sib chiqqan milliy asoslarini mustahkamladi, ijtimoiy-realistik, vatanparvarlik va psixologik yo'nalishlarda boydii, ilmiy asoslangan pedagogik yo'nalishga aylandi;

Sulaymon al-Isa, Samih al-Qasim, Hanna Mina kabi ijodkorlar ijodi bilan yangi badiiy bosqichga ko'tarildi. Arab bolalar adabiyotining bu bosqichi milliy o'zlikni, insonparvarlikni va ijodiy tafakkurni uyg'unlashtirgan bosqich bo'lib, zamonaviy arab she'riyati va nasrida hamon o'z ta'sirini saqlab kelmoqda. XX asr arab bolalar adabiyoti yangi bosqichga ko'tarilib, raqamli madaniyat, global axborot oqimi, ekologik va texnologik muammolar kabi mavzularni o'z ichiga

ola boshladi. Bu davrda bolalar adabiyoti endi faqat tarbiyaviy vosita emas, balki multimediyaviy madaniy hodisa sifatida shakllandi.

Arab olimi Nabila Haffor o‘zining “Ma’lumot asrida bolalar adabiyoti” (أدب الطفل في عصر المعلومات) asarida bu o‘zgarishni quyidagicha izohlaydi: “Arab bolasi endi faqat qog‘ozdagi matnni o‘qimaydi, balki adabiyotni ekran, rasm va tovush orqali his qiladi.” (Nabila Al-Haffar, 2008, p. 12) Bu fikr XXI asr arab bolalar adabiyotining asosiy xususiyatini – multimodal o‘qish madaniyatini aniq ifodalaydi. 2000-yillardan boshlab arab mamlakatlarida elektron nashriyotlar, onlayn jurnallar va mobil ilovalar orqali bolalar adabiyotini targ‘ib qilish jarayoni jadallashdi. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklarida “مكتبة الأطفال الرقمية” (Bolalar raqamli kutubxonasi) loyihasi ishga tushirildi. Unda arab yozuvchilarining minglab bolalar uchun mo‘ljallangan hikoyalari, interaktiv ertaklari, o‘yinlari jamlangan.

Saudiya Arabistonidagi “دار الفكر العربي للأطفال” nashriyoti “Zamon orqali sayohat” (رحلة عبر الزمن) kabi interaktiv elektron kitoblarni chiqardi. Ushbu asarlar bolani faqat o‘qishga emas, balki faol ishtirokchi sifatida adabiy jarayonga jalb etadi.

Quvaytlik tadqiqotchi Doktor Abdulloh Almaturi o‘zining “Arab bolalar interaktiv adabiyoti” (الأدب التفاعلي للطفل العربي) kitobida yozadi: “Arab bolasi elektron vositalar orqali adabiy matnni yaratishda ishtirokchi sub’yektga aylandi.” (Abdullah Al-Mutairi, 2021, p. 34)

XX asr arab bolalar adabiyoti mavzularining eng muhim yangiliklaridan biri – ekologik ong, tinchlik madaniyati, fan va texnologiya bilan bog‘liq mavzularning paydo bo‘lishidir. Falastinlik yozuvchi Mison Asadi “Jalolning olmasi” (تفاحة جلال) nomli kitobida urush sharoitida o‘tib ulg‘ayayotgan bolalarning orzularini tinchlik va birdamlik timsolida ifodalaydi. (Maisoun Asadi, 2012, p. 45). Suriya shoiri Abdurohim Mahmud esa o‘zining bolalar uchun yozgan she‘rlarida zamonaviy texnika va ilm-fan mavzularini poetik shaklda ochib beradi. Uning she‘ri “Kompyuter mening do‘stim” (الحاسوب صديقي) shunday boshlanadi: (Abd al-Rahman Mahmoud, 2011, p. 55)

الحاسوب صديقي،
يُعلِّمُني وأتعلَّمُ منه،
أكتبُ أحلامي وأرسمُ بها عالمي.

Tarjima: Kompyuter do‘stimdir

Menga o‘rgatadi va men undan o‘rganaman

Unga orzularimni yozaman va olamim suratini chizaman

Bu misralar orqali shoir bolaga texnologiyadan to‘g‘ri foydalanish, uni ijodiy kuch sifatida anglash zarurligini uqtiradi.

Zamonaviy arab bolalar adabiyoti nafaqat texnologik, balki psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan ham chuqurlashdi. Bolaning ruhiy kechinmalari, oilaviy muammolar, migratsiya, urush

oqibatlarini kabi murakkab masalalar bolalar uchun mos shaklda ifodalanmoqda. Misol uchun, Livanlik yozuvchi Huda Barokat “Ko’k chumchuq siri” (سرّ العصفور الأزرق) nomli hikoyasida bolalikdagi yolg’izlik, orzu va hayotga bo’lgan ishonchni ramziy ifoda orqali yoritadi. Yana bir muhim yo’nalish – inklyuziv adabiyot, ya’ni nogironligi bo’lgan bolalar haqida hikoyalar yozish an’anasi paydo bo’ldi.

Bu davrda arab mamlakatlarida bolalar adabiyotini tahlil qiluvchi ko’plab ilmiy ishlar, dissertatsiyalar va monografiyalar yaratildi.

Eng muhimlaridan ba’zilari: D.Laylo Sabog’ – XX asrda bolalar adabiyotidagi o’zgarishlar (2022), D.Xolid Husayn – Zamonaviy arab bolalar adabiyotida madaniy oz’iga xoslik (2019), D.Salma Hofiz – Raqamli makonda arab bolalar adabiyoti (2021). Ularning umumiy fikriga ko’ra, zamonaviy arab bolalar adabiyoti madaniy globalizatsiya sharoitida o’z milliy xususiyatini saqlab qolgan holda, innovatsion va interaktiv yo’nalishga ega bo’ldi.

Halid Husayn ta’kidlaydi: “Yangi asr arab bolalar adabiyoti asl qadriyat va zamonaviylik, til va raqamlashtirish o’rtasidagi muvozanatni ifoda etadi.” XX asrda arab bolalar adabiyoti xalqaro miqyosda ham faol rivojlandi. Sharjah Children’s Reading Festival (Sharjah bolalar o’qish festivali), Cairo International Book Fair (Misr xalqaro kitob festivali), Beirut Book Festival (Bayrut kitob festivali) kabi tadbirlarda arab yozuvchilari o’z asarlarini jahon miqyosida targ’ib qilishmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklaridagi “جائزة اتصالات لأدب الطفل” bu sohada eng nufuzli mukofotlardan biridir. 2009 yildan beri har yili eng yaxshi arab tilidagi bolalar kitoblariga beriladi. Bu jarayon arab adabiyotini global madaniyat maydonida mustahkamlab, yosh avlodni ko’p madaniyatli tafakkurga tayyorlashga xizmat qilmoqda.

XX asr arab bolalar adabiyoti quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Raqamli madaniyat – elektron kitoblar, ilovalar, multimediyaviy o’qish.
2. Yangi mavzular – ekologiya, tinchlik, texnologiya, psixologik holatlar.
3. Interaktivlik – bola o’quvchidan ijodkor sub’yektga aylangan.
4. Ilmiy asoslanganlik – pedagogik, psixologik va lingvistik yondashuvlarning uyg’unligi.
5. Global integratsiya – arab adabiyotining xalqaro maydondagi faolligi.

Bu bosqich arab bolalar adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi: u milliy o’zlikni yo’qotmasdan, global tafakkurga ochiqlik tamoyiliga asoslangan, estetik va texnologik uyg’unlikka erishgan madaniy hodisadir.

2010-yillarning oxiri va 2020-yillar boshida arab dunyosida raqamli madaniyatning mislsiz sur’atda rivojlanishi, sun’iy intellekt, virtual haqiqat va interaktiv o’qish texnologiyalarining ommalashuvi natijasida arab bolalar adabiyoti yangi bosqichga o’tdi.

Bu bosqich arab olimlari tomonidan turlicha nomlanadi: To'liq raqamli o'zgarish davri (مرحلة التحول الرقمي الكامل), adabiy sun'iy intellekt asri (عصر الذكاء الاصطناعي الأدبي) yoki qisqacha yangi interaktiv bolalar adabiyoti (أدب الطفل التفاعلي الجديد)

Misrlik olim doktor Xolid Husayn o'zining "Zamonaviy arab bolalar adabiyotida madaniy oz'iga xoslik" (تحولات أدب الطفل العربي في الألفية الثالثة) nomli asarida shunday deydi: "XX asrning uchinchi o'n yilligida arab bolalar adabiyoti raqamli o'zlikni chuqurroq anglay boshladi va global bolaning ruhiyatiga murojaat eta oladigan darajaga yetdi." (Khaled Hussein, 2019, p. 78) Bu davrda arab mamlakatlarida bolalar adabiyotining sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan dastlabki namunalar paydo bo'ldi. Masalan, 2022-yilda Birlashgan Arab Amirliklaridagi "مؤسسة الإمارات للطفولة المبدعة" (Ijodkor bolalar uchun BAA jamg'armasi) tomonidan ishlab chiqilgan "AI hikoya soz'lovchi" loyihasi orqali bolalar sun'iy intellekt yordamida o'z hikoyalarini yaratish imkoniga ega bo'ldilar.

Arab adabiyotshunosi doktor Habba Nasir o'zining "Sun'iy intellekt va bolalar adabiyoti" (الذكاء الاصطناعي وأدب الطفل العربي) nomli kitobida yozadi: "Sun'iy intellekt endi yozuvchi va o'qituvchining hamkori sifatida bolalar adabiyotini yaratishda ishtirok etmoqda, u shunchaki texnik vosita emas." (Salma Al-Hafez, 2010, p. 12) Bu tamoyil arab dunyosida "interaktiv pedagogik adabiyot" tushunchasini shakllantirdi, bunda bola faqat o'quvchi emas, hikoyaning ham yaratuvchisiga aylanadi. Yangi raqamli davr arab adabiyotini global miqyosda tez yoyilish imkoniga ega qildi, ammo bu bilan birga madaniy identitetni saqlab qolish masalasi ham keskinlashdi. Saudiya olimasi doktor Rim Tivyan o'zining "Arab raqamli bolalar adabiyotida madaniy identitet" (الهوية الثقافية في أدب الطفل العربي الرقمي) asarida bu jarayonni shunday izohlaydi: "Raqamli bolalar adabiyoti global dunyo bilan muloqotda bo'lar ekan, o'zining tili va qadriyatlarini saqlab qolmog'i lozim." Shu bois arab yozuvchilari global mavzularni — ilm-fan, tabiat, fazo, tinchlik, ekologiya — yoritarkan, ularni arabcha qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga intilmoqdalar. (Reem Al-Tuwaiyan, 2021, p. 56)

XX asrning so'nggi yillarida bolalar adabiyoti pedagogik innovatsiya sifatida qaralmoqda. Ko'plab arab maktablarida adabiy o'qish o'yin shaklida, AR (augmented reality) yordamida o'tilmoqda. Qatarda yaratilgan "أقرأ وأتعلم" (O'qiyman va o'rganaman) ilovasi bolalar uchun she'r, hikoya, va ertaklarni ovozli, vizual, hamda interaktiv shaklda taqdim etadi. Bu jarayon bolalarda til sezgisi, nutq boyligi va estetik idrokni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Marokash olimi doktor Abdulkarim Xotib o'z tadqiqotida shunday deydi: Yangi bolalar adabiyoti o'yin va ta'limni, rasm va tilni birlashtirib, yaxlit bilish tajribasini yaratadi. (Abdel Karim Khatib, 2021, p. 37)

So'nggi yillarda arab yozuvchilari xalqaro bolalar adabiyoti mukofotlarida faol qatnashmoqdalar. Masalan: 2021-yilda BAA yozuvchisi Badur Qosimi o'zining "Nura oyga sayohat" (إلى القمر رحلة نورة) asari bilan Bologna Children's Book Fairda e'tirof etildi. 2022-yilda

Falastinlik yozuvchi Mison Da'na "Osmondagi gul" (زهرة في السماء) asari bilan Sheyx Zayd "Award for Literature" g'olibi bo'ldi. Bu yutuqlar arab bolalar adabiyotining global adabiyot tizimiga kirib borayotganini ko'rsatadi. Bu davr arab bolalar adabiyotining eng zamonaviy, dinamik bosqichi bo'lib, quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Sun'iy intellekt va interaktiv o'qishning adabiy jarayonga kirib kelishi;
2. Raqamli madaniyat asosida adabiy mahsulotlarning ommalashuvi;
3. Global mavzularni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish;
4. Pedagogik innovatsiyalar – o'yinli o'qish, AR/VR texnologiyalar asosidagi hikoyalar;
5. Arab yozuvchilarining xalqaro adabiy maydonda faol ishtiroki.

Shunday qilib, arab bolalar adabiyotining postmodern, raqamli va interaktiv bosqichi bo'lib, u nafaqat arab bolasi, balki global bolaning ongini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa. XX asr arab bolalar adabiyoti milliylik va zamonaviylik, an'ana va innovatsiya, estetik va texnologik yondashuvlar uyg'unligiga asoslangan dinamik adabiy tizim sifatida shakllandi. U nafaqat arab bolasi, balki global madaniy makonda ulg'ayayotgan zamonaviy bolaning tafakkurini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim adabiy hodisa sifatida e'tirof etilishi mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari arab bolalar adabiyotining hozirgi holatini baholash va uning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ahmed Zalat. (1992). Children's Literature in Modern Arabic Literature. Adab al-Atfal fi al-Adab al-'Arabi al-Hadith. – Cairo. – 240 p. (in Arabic)
2. Nabila Al-Haffar. (2003). History of Arabic Children's Literature. Tarikh Adab al-Tifl al-'Arabi. – Damascus. – 300 p. (in Arabic)
3. Nasrin Radwan. (2009). Arabic Poetry for Children. Al-Shi'r al-'Arabi li-l-Atfal. – Beirut. – 180 p. (in Arabic).
4. Muhammad Ubayd Allah. (2012). The Contemporary Children's Poem. Al-Qasida al-Tufuliyya al-Mu'asira. – Amman. – 210 p. (in Arabic)
5. Samira Abu Ria. (2010). Children's Literature in the Arab World. Adab al-Tifl fi al-Watan al-'Arabiyo – Sharjah. – 220 p. (in Arabic)
6. Zuhair Ghanem. (2016). Studies in Arabic Children's Literature. Dirasat fi Adab al-Tifl al-'Arabi. – Cairo. – 250 p. (in Arabic)
7. Abu al-Qasim al-Shabbi. (1953). Children's Songs. Al-Anashid al-Tufuliyya. – Tunis. – 120 p. (in Arabic)
8. Abbas Mahmoud al-Aqqad. (2010). Language and Childhood. Al-Lugha wa al-Tufula. – Cairo. – 160 p. (in Arabic)

9. Ali Al-Hadidi. (2005). Children's Literature Between Heritage and Modernity. Adab al-Tifl bayna al-Turath wa al-Mu'asara. – Cairo. – 250 p. (in Arabic)
10. Maisoun Asadi. (2012). Jalal's Apple. Tuffahat Jalal. – Kafr Qara: Dar Al-Huda Printing and Publishing. – 120 p. (in Arabic)
11. Abd al-Rahman Mahmoud. (n.d.). The Computer Is My Friend. Al-Hasub Sadiqi. In Diwan of the Martyr (Diwan al-Shahid). (in Arabic)
12. Hoda Barakat. (2011). The Secret of the Blue Bird. Sirr al-'Usfur al-Azraq. In Arab Stories for Boys and Girls. Hikayat 'Arabiyya li-l-Fityan wa-l-Fatat. – Beirut: Dar Al-Adab. – 160 p. (in Arabic)
13. Layla Al-Sabbagh. (2022). Transformations of Children's Literature in the 21st Century/ Tahawwulat Adab al-Tifl fi al-Qarn al-Hadi wa-l-'Ishrin. – 170 p. (in Arabic)
14. Khaled Hussein. (2019). Cultural Identity in Contemporary Arabic Children's Literature. Al-Huwiyya al-Thaqafiyya fi Adab al-Tifl al-'Arabi al-Mu'asir. – 200 p. (in Arabic)
15. Salma Al-Hafez. (n.d.). Arabic Children's Literature in the Digital Space. Adab al-Tifl al-'Arabi fi al-Fada' al-Raqmi. (in Arabic).
16. Heba Al-Nasser. (2022). Artificial Intelligence and Arabic Children's Literature. Al-Dhaka' al-Istina'i wa Adab al-Tifl al-'Arabi. – Beirut: Dar Al-Fikr Al-Mu'asir. – 220 p. (in Arabic)
17. Reem Al-Tuwaiyan. (2021). Cultural Identity in Digital Arabic Children's Literature Al-Huwiyya al-Thaqafiyya fi Adab al-Tifl al-'Arabi al-Raqmi. – Riyadh: Arab Center for Digital Culture. – 190 p. (in Arabic)
18. Abdel Karim Khatib. (2021). Aesthetics of Children-Oriented Literature in the Digital Age. Jamaliyyat al-Adab al-Muwajjaha li-l-Tifl fi al-'Asr al-Raqmi. Journal of Childhood and Development, Issue 52. – Cairo: Arab Council for Childhood and Development. – p. 37. (in Arabic)
19. Bodour Al Qasimi. (2021). Noura's Journey to the Moon. Rihlat Nura ila al-Qamar. – Sharjah: Kalimat Publishing. – 32 p. (in Arabic)